



## ZAMONAVIY NEMIS TILIDA CHET TILLARIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING O'RNI

Nasimov Dilshod Salim o'g'li

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'ladigan omillar haqida so'z boradi. Maqolada o'zlashmalarning kirib kelish sabablari, jumladan lingvistik yoki ekstralingvistik sabablari, qaysi tillardan qaysi sohalarga so'zlar o'zlashganligi haqida fikr yuritiladi. Kirish qismida o'zlashgan so'zlarning bugungi kundagi ahamiyati va roli, uning lingvistik mohiyati to'g'risida so'z boradi.

Adabiyotlar tahlili qismida qaysi o'zbek va nemis tilshunos olimlari ushbu sohada tadqiqotlar olib borganligi, ilmiy ishning bazasini yaratilishida asos bo'lib xizmat qilgan manba adabiyotlar to'g'risida fikr yuritiladi. Metodlar va nazariy asoslar qismida o'zlashgan so'zlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zlashmalar, lug'at tarkibi, chet tili, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, lotin tili, ingliz tili

## LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC SIGNIFICANCE OF GERMAN LANGUAGE DICTIONARY


Nasimov Dilshod Salim o'g'li

**Abstract:** This article discusses the factors that lead to the influx of words from other languages into German. The article discusses the reasons for the introduction of assimilations, including linguistic or extralinguistic causes, from which languages to which areas words are assimilated. The introductory part deals with the current significance and role of the learned words, their linguistic significance.

In the analysis of the literature, it is considered which Uzbek and German linguists have conducted research in this field, the source literature that served as the basis for the creation of the basis of scientific work. The Methods and Theoretical Foundations section focuses on the words learned.

**Keywords:** Borrowed words, dictionary structure, foreign language, linguistic factors, extralinguistic factors, Latin, English.

KIRISH. Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan muloqotda ushbu texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki bu texnologiyalarning nomlanishi ham turlicha. Bu paytda esa biz albatta o'zlashma so'zlarni qo'llashga majbur bo'lamiz. Ma'lumki, har bir tilning lug'at tarkibi boyib borishining bir qancha yo'llari mavjud. Ana shunday yo'llarning biri bu boshqa tillardan so'zlar o'zlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan o'tkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Ma'lum bir tilning hozirgi davr rivojida avvalo boshqa davlatlar bilan





ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli bo'lgan so'zlar o'zlashishi kuzatilmoqda. Har bir tilning o'z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so'zlarning kirib kelishi kuzatilgan.

Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi so'zlarning kirib kelishi o'sha tillarning lug'ati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligida tilning lug'at tarkibining boyib borishining bir qancha yo'llari mavjud.

11. Yangi so'zlar yasalishi orqali (So'z yasalishi)
12. Boshqa tillardan so'z kirib kelishi orqali (o'zlashmalar)
13. Mavjud so'zlarning ma'nosi o'zgarishi orqali (ma'no ko'chishi)
14. Frazologik birikmalarning yasalishi orqali (frazologizmlar)

Bundan ko'rinib turibdiki so'zlarning boshqa tillardan kirib kelishi lug'at tarkibini boyishida muhim rol o'ynaydi. O'zlashmalar shunday jarayonni anglatadiki, unda so'zlarning bir qismlari yoki butun fraza bo'lgan so'zlar o'zi boshqa tildan boshqasiga ko'chib o'tadi. Bunday so'zlarning tilshunoslikda uchrashi bir tomondan "muloqot fenomenlarida", ya'ni biron bir xalqning uzoq vaqtlar davomida til va madaniy aloqalarida ko'rinsa ikkinchi tomondan avlodlarning davomiy muhim iqtisodiy va madaniy guruhlariga qarab intilishida yoki ularning hududiy chegarada ikki yoki ko'p tilligida ko'rinadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ushbu maqolani yoritishda quyidagi adabiyotlardan foydalanildi. Jumladan Arakeljan S. Lexikologie des Deutschen. Universität Jerewan, 2017, Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001, Tesch G. Linguale Interferenz. Theoretische, terminologische und methodische Grundfragen zu ihrer Erforschung, Tübingen, TBL-Verlag Narr, 1978,

Muhr R. Eurospeak: Der Einfluss des Englischen auf europäische zur Jahrtausendwende. Frankfurt am Main, Langenscheidt, 2004, S. 9.

Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001, S. 10.

Muhr R. Eurospeak: Der Einfluss des Englischen auf europäische zur Jahrtausendwende. Frankfurt am Main, Langenscheidt, 2004 kabilardan foydalanildi.

#### **METOD VA NAZARIY ASOSLAR**

O'zlashmalar atamasi lingvistik hodisalarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishning barcha turlari uchun umumiy atama bo'lib, asosan kengroq ma'noda ishlatiladi, ya'ni u nafaqat natijani, balki ushbu o'zlashish jarayonini ham qamrab oladi. O'zlashish fenomenlarini til darajasiga qarab ajratish mumkin.<sup>3</sup>:

fonetik-fonologik - fonemani import qilish, fonemaning pasayishi yoki fonemaning yo'q bo'lishi,

grammatik - so'z yasash morfemalarini qabul qilishda va egiluvchan almashtirishda o'z ifodasini topadigan,







leksik-semantik - leksemalarni qabul qilish yoki ko'paytirishdan iborat, sintaktik, natijada o'zlashma konstruktsiyalari va gapda o'zlashmalar tartibi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, o'zlashtirish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chet tilidagi so'zlarni tilga kirib kelishi fonostruktura va ayniqsa morfostruktura tub o'zgarishlarga olib kelishi mumkin; o'zlashtirilgan so'zlar chet tilidagi so'z yasash uslublariga yo'l ochadi.

Tilshunoslik asosan leksik o'zlashmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq, chunki bu qarz so'z o'zlashishining eng keng tarqalgan shakli, shuningdek, so'zlovchi tomonidan tan olinishi eng oson shakli. So'zni shakllantirish va ma'no o'zgarishi bilan bir qatorda, bu so'zlarning ifodalanishini topishning asosiy usullaridan biri va shu bilan til o'zgarishi uchun muhim omil hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, leksik o'zlashma so'zlarning boshqa tildan olinishi, o'z tilidagi so'zlar begona qolipga ko'ra shakllanishi yoki mavjudlarining ma'nolari o'zgartirilishidan iborat. Hozirgi kunda nemis tilining 500-600000 so'zdan iborat butun lug'at tarkibida taxminan 150.000 o'zlashgan so'zlar, shuning uchun har uch nemis tilidagi so'zdan kamida bittasi chet tilidan kirib kelgan so'z hisoblanadi.

Tilshunoslik tarixi nuqtai nazaridan nemislarning "qadimgi mahalliy aholisi", ya'ni german va hind-yevropa tillaridan "meros qilib olgan" ichki so'zlar (mahalliy so'zlar) salmog'i anchayin ko'pchilikni tashkil qiladi. Hind-Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar qatlami butun hind-Yevropa til oilasiga (uchun umumiy bo'lib, masalan, dt. *neu*, ngriech. *néos*, russ. *novy*, lat. *novus*, lit. *Naujas*), nemis qadimgi meros so'zlari, boshqa tomondan, faqat german sohasida aniqlash mumkin hind-yevropa tillari (masalan, dt. *Winter*, engl. *winter*, schwed. *vinter*, got. *vintrus*). Ushbu mahalliy so'zlarning ko'pchiligi vaqt o'tishi bilan so'z yasalishi orqali, kompozitsiyalar va boshqalar jarayinlar orqali hajmi ko'payib borgan.

**Rim davrida** (miloddan avvalgi 50 - milodiy 500) yuqori nemis tili (ikkinchi) tovush siljishidan oldin birinchi lotin to'liqini o'zini namoyon qildi. O'zlashmalarning o'zlashishining eng muhim maydoni janubda Mayntsdan Quyi Reyngacha, Yuqori Reyn-Dunay-Alp tog'lari esa nisbatan kamroq rol o'ynagan

Shu vaqt ichida lotin tilidan 500 dan ortiq so'z qabul qilingan. Ehtimol, lotin tilidan olingan eng qadimgi so'z so'zi *Kaiser* so'zidir.

Imperator Avgust (miloddan avvalgi 31 yildan eramizning 14 yiligacha) davrida rimliklar Alp va Dunay oralig'idagi yerlarni bosib oldilar. Chegaradagi mahalliy aholi tezda Rim turmush tarzini qabul qila boshladilar. Ushbu davrda qabul qilingan so'zlar, avvalambor, moddiy madaniyatning ma'lum sohalari bilan bog'liq. Va shu tariqa quyidagi sohalarda so'zlar o'zlashdi.

Qadimgi Rim madaniyati va davlatchiligi asnosida bir qancha sohalarga so'zlar kirib kela boshlagan. Aynan o'sha davrlarda Rim imperiyasining davlat tili lotin tili bo'lgan. Nemis tili lug'ati tarkibini quyidagi sohalar boyitgan:





**qishloq xo'jaligi** (*Pflanze, ahd. pflanza, lat. planta. Wein, ahd. win, lat. Vinum u.a.*),  
**harbiy** (*Kampf, ahd. kampf, lat. campus, Wall ahd. wal, lat. vallum u.a.*), **qurilish**  
**sohasida** (*Fenster ahd. venester, lat. fenestra, Kammer ahd. kamera, lat. camera u.a.*),

**savdo-sotiq va uy anjomlari** (*Pfund, ahd. pfunt, lat. pundus, Tisch, ahd. tisc, lat. discus u.a.*). Lotin tilidan so'zlarning kirib kelishi keyinchalik ham davom etdi, chunki bu til nemis tili so'z boyligining ortishiga boshqa tillardan ko'ra ko'proq ta'sir etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Lotin tilidagi so'zlar son jihatdan nafaqat nemis tili lug'ati tarkibida, balki Yevropaning ko'pgina tillari tarkibida ham salmog'i anchagina. Chunki ko'pgina tilshunoslar Yevropaning qator tillarining "**Bobo tili**" sifatida lotin tilini e'tirof etishadi. Keyinchalik V-VII asrlarga kelib Germaniya hududida xristian dinining kengayishi natijasida yana lotin tilidan din va cherkov an'analari sohasiga (*Kloster lat. claustrum, opfern lat. operari u.a.*) oid so'zlar o'zlashdi. Lotin tili nafaqat din sohasi tili, balki u ilm-fan, ta'lim va davlat boshqaruvi sohalarida ham asosiy til hisoblangan.

Shu nuqtai nazardan har bir til lug'at tarkibida o'z so'zlari bilan bir qatorda chetdan kirib kelgan begona so'zlar kuzatiladi. Aynan shu xususiyatga ko'ra leksikologiyada o'z va o'zlashgan so'zlar tarkibi ajratiladi. Jumladan, o'zbek tilida o'z so'zlari bilan bir qatorda fors-tojik, arab va internatsional so'zlar ajratiladi.

O'zbek tilidagi o'z so'zlari tarkibiga tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kul, kishi, bola, oq, qora, qizil, ko'k, bir, ikki, uch, besh, men, sen, u, biz, kel, ol, bor, ildam, ilgari va boshqalarni kiritish mumkin. Fors-tojik so'zlariga esa osmon, oftob, bahor, barg, daraxt, xona, shamol, serob, shirin, mard, kamtar, mexribon, jonajon va boshqalarni kiritish mumkin. Internatsional so'zlarga teatr, kino, konsert, film, kompozitor, shashka, fizika, matematika, voleybol, boks va boshqalarni kiritish mumkin.

## NATIJALAR

Chet el so'zlarini o'zlashtirish sabablari har xil va ularni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1.Istak. Chet tili elementlarini qabul qilish aloqa talablari va ehtiyojlarini qondirish va donor tilida ma'lumotlarni ifoda etish istagi bilan bog'liq. Chet tilidan biron bir so'zni qabul qilishning eng muhim sababi bu Sachtentlehnunglardir, ya'ni biron bir so'z o'zlashtirish jarayonida o'sha so'zning muqobil varianti yo'qligi sababli ushbu so'z boshqa tilga kirib keladi.

Hatto til egalarining munosabati, ularning yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan donor tiliga bo'lgan munosabati ham so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'ladi. Nufuzlilik omili nafaqat ikki tilda so'zlashadigan so'zlovchilarda seziladi. O'zlashmalar ta'sir asosan tilda uzoq vaqt saqlanmaydigan leksik aralashuvlar shaklida taqdim etiladi.

Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan beri AQShning iqtisodiy va siyosiy ta'siri ingliz tilini deyarli moda tiliga aylantirdi. Hozirgi kunda til ishtirokchilari o'ziga xoslik, zamonaviylik va reklama samaradorligi hamda ekspert bilimlari to'g'risida signal berish uchun ko'pincha chet tili elementlariga murojaat qilishadi. Bunda ular imidj bilan ishlashadi.







Bundan tashqari, tilning o'zining boshqa qonunlari mavjud. Tilshunoslikda so'zni tejash ekonomika (so'zlarni tejash) jihati orqali qisqa chet tillaridan o'zlashgan so'zlardan foydalanishni boshlaydi.

Masalan, *Tempolimit* o'rniga *Geschwindigkeitsbegrenzung* ;

Bir bo'g'inli inglizcha so'zlar bu yerda ayniqsa qo'l keladi.

Masalan, *job* , *set* .

Ichki motivatsiyalangan so'zlar yoki motivatsiyasi ma'nosiz, chalg'ituvchi, noaniq yoki befarq bo'lib qolgan so'zlarni, motivatsiyali so'zlar bilan almashtirishga harakat qiladi.

Masalan: *Backfisch* durch *Teenager*.

Mahalliy so'zlar uzoq muddatli foydalanish orqali o'zlarining muhim ma'nosini yo'qotadi, ular eskirgan tangalar singari susayadi va ishlatilishi pastroq bo'ladi. Shunday qilib, eskirgan belgilarni doimiy ravishda almashtirib boriladi. Xorijiy so'zni yuqori deb hisoblaniladi va yuqori ijtimoiy asosga ega bo'ladi, masalan, XVII - XVIII asrlarda fransuz tilidan qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi *Onkel* va *Tante* nemis tilidagi *Oheim* va *Muheim* (aslida "onaning singlisi") so'zlari o'rniga o'zlashgan.

O'zlashmalar o'zgartirish va ularni mavjud belgilar bilan belgilash dublikatlari sifatida ko'rinishi mumkin. Kommunikativ jihat uslubning o'zgarishi bilan ifodalanadi: Lehngut ilgari mavjud bo'lmagan sinonimlarni ishlab chiqaradi.

Masalan.: *Filmfest - Festival - Filmfestival*.

Maqtash va tanbeh berish iboralari ayniqsa mashhur bo'lib, ular so'z maydonini boyitishga olib keladi:

Masalan: *nett*, *famos*, *süperbe*, *grandios*.

Jurnalistika, shuningdek, adabiy til ham bunday olinmalardan keng foydalanadi.

Boshqa bir misolda esa ataylab joylashtirilgan begona elementlar bilan qanday qilib ma'lum bir atmosferani yaratish mumkinligini ko'rish mumkin:


Masalan: *Man erhält diesen Eindruck, wenn man vergleichsweise einen Blick in das Pub einer Londoner Vorstadt, in ein Bistro von Clignancourt, eine Trattoria in Ravenne, oder ein Drugstore in New Yorks Third Avenue wirft.*

O'zlashmalar tarkibini turli xil usullar bilan boyitish mumkin. Bu yerda keltirilgan tushuntirishlar o'zlashmalarning o'zlashish yo'llarining terminologik rivojlanishining nemis tilida qanchalik keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Geografik nuqtai nazardan o'zlashmalarni bevosita va bilvosita (vositachilik) deb nomlangan ikki turga ajratish mumkin.

## XULOSA

Jahon tillarida bo'lgani kabi nemis tiliga ham dunyoning qator tillarida so'zlar o'zlashgan. Nemis tiliga dastlab keltirilgan so'zlar o'zlashganini ko'rishimiz mumkin. So'ngra butun Yevropa bo'ylab lotin tili hukmronligi o'rnatila boshladi. Lotin tili





Yevropa tillari uchun “Bobo til” ekanligi bejizga emas albatta. Lotin tilidan soʻzlar oʻzlashishini uch davrga boʻldik.

Gaʻrbiy Rim imperiyasi davrida asosan bosqinchilik urushlari sababli

Xristianlashtirish - xristian dinini keng tarqalish natijasida

Gumanizm - ilm fan sohasidagi lotincha, internatsional soʻzlar

Nemis tili lugʻati tarkibidagi soʻzlari ulushi koʻpligi bilan ajralib turadigan til bu fransuz tilidir. Fransuz tilidan soʻzlarning kirib kelishini ham olimlar uch davrga boʻlishadi.

Fransuz ritsarlik madaniyati, sheʼriyati, adabiyoti, saroy etiket qoidalari, yangi modasi - XI -XII asrlarda

30 yillik urushning tugashi, a la mode Zeit - XVII - XVIII asrlarda

Fransuz revolyutsiyasi - XVIII asrning ikkinchi yarmida

Nemis tilida oʻzlashmalarning tarixda koʻp oʻzlashgan va bugungi kunda soʻzlar oʻzlashishi davom etayotgan til shubhasiz bu ingliz tilidir. Amerika ikkinchi jahon urushidan keyin yetakchi davlatga aylanganlig, bugungi globallashuv jarayonlari, fan texnikaning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalar ingliz tilidan soʻzlarning kirib kelishiga sabab boʻlmoqda.

Bundan tashqari nemis tilida italyan tili, kelt tili, slavyan tillari, rus, arab, ispan va boshqa tillardan soʻzlar oʻzlashganini koʻrishimiz mumkin.

Bu tillardan soʻzlarning kirib kelishiga bir qancha ekstralingvistik va sotsiolingvistik sabablarni keltirib oʻtish mumkin. Jumladan, harbiy soha (bosqinchilik urushlari, yerlarning istilo qilinishi), madaniyat sohasida, ilm-fan, texnologiya rivojlanishi oqibatida kirib kelmoqda. Bugungi kundagi globallashuv jarayonlari ham koʻpgina tillarga yangi soʻzlarning kirib kelishiga zamin yaratmoqda. (internet, IT, zamonaviy texnologiyalar shular jumlasidandir)

## REFERENCES

- 1.Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder 2.Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001.
3. Dildora Abdinabiyevna Rahmanova (2021). DIE BEDEUTUNG DES ONLINE-LERNENS IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 470-473.
4. Rakhmatov, F. (2020). Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy oʻrganish. Academic research in educational sciences,(3).
5. Рахматов, Ф., & Тилолова, Г. (2013). Чет тилини укитишда хориж тажрибаси ва грантларнинг ахдмияти. Чет тилини уцитишда методика, малака ва тажриба, 259-261.
6. Abdukhalilova, D. (2020). Semantic properties of pairs of words. The Journal

